

**“TASDIQLAYMAN”  
G’ozg’on shahar hokimi**

**A.Bazarov**

**2022 yil “\_\_\_” fevral**

**Navoiy viloyati G’ozg’on shahar xalq ta’limi tizimidagi islohotlarni yanada jadallashtirish hamda sohada mavjud muammolarni bartaraf etish bo'yicha maktab ta'limini isloh qilish shahar kengashining  
YO'L XARITASI**

T/R	Chora-tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Talab etiladigan mablag' (so'm)	Moliyalashtiri sh manbasi	Mas'ul ijrochilar
<b>I. Ta'lim sifatini oshirish yo'nalishi</b>						
1.	Shahardagi ta'lim muassasalarining xorijiy til (ingliz) o'qituvchilari o'rtasida "Eng mahoratli xorijiy til o'qituvchisi" viloyat ko'rik-tanlovining viloyat bosqichiga shahar ta'lim muassasalarining xorijiy til (ingliz) o'qituvchilari ishtirokini ta'minlash.	Xorijiy til (ingliz) o'qituvchilari uchun tashkil etilgan ko'rik-tanloviiga shahar ta'lim muassasalarining xorijiy til (ingliz) o'qituvchilari ishtirokini ta'minlash	2022 yil yanvar-may	Loyiha doirasida	Mahalliy byudjet hisobidan	G’ozg’on shahar moliya, xalq ta'limi bo'limlari

T/R	Chora-tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Talab etiladigan mablag' (so'm)	Moliyalashtirish manbasi	Mas'ul ijrochilar
2.	<b>G'ozg'on shahardagi umumta'lim maktablarida aniq va tabiiy fanlardan darslarni samarali tashkil etish uchun ko'rgazmali maketlar bilan ta'minlash.</b>	<p>1. Aniq va tabiiy fanlar bo'yicha umumta'lim maktablariga zarur bo'lgan ko'rgazmali maketlar ro'yxatini shakllantirish va tasdiqlash;</p> <p>2. Umumta'lim maktablarining ko'rgazmali maketlarga bo'lgan ehtiyojini aniqlash;</p> <p>3. Ehtiyojdan kelib chiqib ko'rgazmali maketlar xarid qilinishini amalga oshirish va yetkazib berish.</p>	<p>2022 yil mart</p> <p>2022 yil aprel</p> <p>2022 yil may</p>	Loyiha doirasida	Mahalliy byudjet mablag'lari	G'ozg'on shahar xalq ta'limi bo'limi
3.	Shahardagi umumta'lim maktablari o'qituvchi va o'quvchilarini <b>TIMSS</b> (4- va 8-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan o'zlashtirish darajasini baholash), <b>PISA</b> (15 yoshli o'quvchilarining o'qish, matematika va tabiiy fanlardan savodxonligini baholash) xalqaro baholash dasturlarida ishtirok etishga tayyorlash.	<p>1. O'quvchilarning olgan bilimlarini amaliyotda qo'llash qobiliyatini rivojlantirish;</p> <p>2. Ta'lim muassasalarida sifatli ta'lim berish uchun yetarli shart-sharoitlarni yaratish;</p> <p>3. Xalqaro tadqiqotlar doirasida ta'lim sifatini baholash metodikasi va texnologiyalarini samarali takomillashtirib borish.</p> <p>4. A.Avloniy ilmiy-tadqiqot institutining xalqaro baholash dasturlariga tayyorlovchi <b>stesting.uz</b> platformasi orqali shahar maktablari o'quvchilarining <b>PISA</b>, <b>PIRLS</b>, <b>TIMSS</b> onlayn</p>	<p>2022 yil mart</p> <p>2022 yil may</p> <p>2022 yil fevral</p> <p>doimiy</p> <p>2022 yil fevral-mart</p>	-	Mahalliy byudjet mablag'lari	G'ozg'on shahar xalq ta'limi bo'limi

<b>T/R</b>	<b>Chora-tadbir nomi</b>	<b>Amalga oshirish mexanizmi</b>	<b>Ijro muddati</b>	<b>Talab etiladigan mablag' (so'm)</b>	<b>Moliyalashtirish manbasi</b>	<b>Mas'ul ijrochilar</b>
		tayyorgarlik sinovlarida ishtirok etishini ta'minlash.				
4.	Aniq va tabiiy fan o'qituvchilari o'rtasida "Zakovat" intellektual tanlovi, "Yosh o'qituvchilar" forumi, "Ta'lim tizimida muammoli, masofaviy va hamkorlik ta'lim texnologiyalari" mavzusida ilmiy konferensiya (rus va xorijiy til o'qituvchilari o'rtasida), Umumta'lim muassasalaridagi informatika fanidan 5-6 sinf o'quvchilar o'rtasida "SCRATCH"da eng yaxshi loyiha tanlovi, Milliy o'quv dasturi doirasida yaratilgan yangi avlod darsliklarining samaradorligi hamda boshlang'ich sinflarda o'qish "EGRA"va matematik ko'nikmalarni baholash "EGMA" bo'yicha mamlakat bo'ylab olib borilgan tadqiqotlar yuzasidan ilmiy-amaliy seminar, Rus va xorijiy tillarni o'qitishdagi eng zamonaviy usullar hamda bilingvizm,	Tasdiqlangan reja-grafik asosida ko'rik-tanlovlari, forum, konferensiya, ilmiy-amaliy seminar va davra suhbatlarini o'tkazish.	2022 yil fevral - noyabar	-	-	G'ozg'on shahar xalq ta'limi bo'limi

T/R	Chora-tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Talab etiladigan mablag' (so'm)	Moliyalashtirish manbasi	Mas'ul ijrochilar
	poliglot o'qituvchilar va o'quvchilarga bag'ishlangan davra uchrashuvlari va ilmiy-amaliy seminar o'tkazish.					
5.	O'quvchilarda yozma savodxonlik va mantiqiy fikrlash ko'nikmalarni shakllantirish.	<p>1. O'quvchilarda yozma savodxonlik va mantiqiy fikrlash ko'nikmalarni shakllantirish maqsadida fan (matematika, ona tili) to'garaklari samaradorligini tizimini takomillashtirish;</p> <p>2. 5-11 sinf o'quvchilar uchun diktant matnlari va matematikadan yozma ish materiallari tayyorlash hamda sinov o'tkazish;</p> <p>3. Olingan natijalarни tahlil qilish va o'quvchilar bilan bo'shliqlar ustida ishslash soatlarini tashkil etish.</p>	<p>2022 yil Mart</p> <p>2022 yil aprel</p> <p>2022 yil may</p>	-	-	G'ozg'on shahar xalq ta'limi bo'limi,
6.	Pedagoglarni zamonaviy o'qitish metodikasi, jumladan yangi Milliy o'quv dasturi asosida malakasini oshirish.	<p>1. Milliy o'quv dasturi asosida maxsus videokurslar yordamida pedagoglar malakasini oshirish.</p> <p>2. Platforma orqali bosqichma-bosqich o'qituvchilar malakasini oshirish.</p> <p>3. Ustoz-shogird maktabini tashkil etgan holda amaliyotda yosh mutaxassislarga doir o'quvlarni doimiy tashkil etib borish.</p>	rejaga asosan doimiy	-	-	G'ozg'on shahar xalq ta'limi bo'limi

T/R	Chora-tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Talab etiladigan mablag' (so'm)	Moliyalashtirish manbasi	Mas'ul ijrochilar
7.	Shahardagi umumta'lim maktablari quvvatini maqbullashtirish.	1. Shahardagi barcha umumta'lim maktablarini quvvatidan foydalanish darajasini o'rghanish, quvvatidan yuqori bo'lgan umumta'lim maktablarni aniqlash va ro'yxatini shakllantirish.	2022 yil Mart	Hisob kitoblarga ko'ra	Mahalliy byudjet mablag'lari	shahar hokimligi, G'ozg'on shahar xalq ta'limi bo'limi
8.	"Eng yaxshi videodars" tanlovini tashkil etish va g'oliblarning ishini viloyat xalq ta'limi boshqarmasiga taqdim etish.	1. G'olib o'qituvchilarning videodarslarini faoliyatda foydlanishlari uchun ta'lim muassasalriga yetkazish	2022 yil Fevral	Hisob kitoblarga asosan	Mahalliy byudjet hisobidan	G'ozg'on shahar xalq ta'limi bo'limi
9.	Pedagog kadrlarning malaka toifalarini oshirish.	1. Attestasiyaning malaka (test) sinovi natijalari past bo'lgan o'qituvchilar ro'yxatini shakllantirish. 2. Ilg'or pedagoglar tajribasidan foydalaniib shahar markazida qisqa muddatli kurslar tashkil etish.	2022 yil mart 2022 yil aprel-iyun	-	Mahalliy byudjet mablag'lari	G'ozg'on shahar moliya, xalq ta'limi bo'limlari
<b>II. Kadrlar salohiyatini oshirish yo'nalishi</b>						
10.	Ta'lim sifatini oshirish uchun xorijiy mutaxassislarni jalb qilish.	1. Aniq va tabiiy fanlar hamda chet tillar bo'yicha kamida 2 tadan xorijiy mutaxassis (metodist, o'qituvchi)ni mahalliy byudjet mablag'lari hisobidan jalb qilish va ularga barcha shart-sharoitlarni ta'minlash.	2022/2023 o'quv yiliga qadar	Hisob kitoblarga asosan	Mahalliy byudjet hisobidan	Shahar hokimi, shahari moliya bo'limi

T/R	Chora-tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Talab etiladigan mablag' (so'm)	Moliyalashtirish manbasi	Mas'ul ijrochilar
		2. Bunda, jalb qilinadigan mutaxassislarning sifat darajasini ta'minlash maqsadida ularning ro'yxati Xalq ta'limi vazirligi bilan kelishish.				
11.	Fan o'qituvchilarini attestasiya jarayoniga tayyorlash, malaka talablari va sifat tarkibini ko'tarish uchun o'qituvchilar o'rtasida navvxtb.uz platformasi orqali metodik kunlarda mantiqiy savollardan tuzilgan onlayn test sinovlarida fan o'qituvchilarining ishtirokini ta'minlash	Aniqlangan bo'shlqlar asosida tayanch o'quvlarga reja ishlab chiqish shuningdek ilg'or ish tajribasiga ega o'qituvchilar orqali metodik yordam ko'rsatish	Doimiy	Hisob kitoblarga asosan	Xalq ta'limi vaziri jamg'armasi	G'ozg'on shahar xalq ta'limi bo'limi fan metodistlari
12.	O'qituvchilarni individual dasturlar orqali malakasini oshirish.	1. Baholash natijalari asosida har bir o'qituvchini 7 ta kompetensiya bo'yicha bilim va pedagogik mahoratini oshirishga qaratilgan individual malaka oshirish kursiga jalb qilish; 2. Malaka oshirish kurslarini "Uzluksiz kasbiy ta'lim" elektron platformasi orqali amalga oshirish.	2022 yil aprel-may	-	-	G'ozg'on shahar xalq ta'limi bo'limi,
13.	Shahardagi jami toifasiz o'qituvchilar ulushini 47	1. "Ustoz-shogird" an'anasi bo'yicha ustozlarga har bir kasb bo'yicha ma'lum muddatga	2022 yil Fevral	-	-	G'ozg'on shahar xalq ta'limi bo'limi

T/R	Chora-tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Talab etiladigan mablag' (so'm)	Moliyalashtirish manbasi	Mas'ul ijrochilar
	foizdan 26,4 foizga kamaytirish.	<p>mo'ljallangan aniq ishchi dasturlar ishlab chiqish;</p> <p>2. S1 darajadagi milliy va unga mos darajadagi xalqaro sertifikatga ega xorijiy tillar pedagog xodimlarini malaka toifalarini bir pog'onaga oshirish amaliyotini joriy etish;</p> <p>3. Ishga yangidan qabul qilinganidan so'ng joriy o'quv yilining mart-may oylaridagi pedagog kadrlar attestasiyasida navbatdan tashqari attestasiyada o'z hohishiga ko'ra, ishtirok etish orqali oshirish imkoniyatini berish;</p> <p>4. O'qituvchilardan o'zining asosiy fanidan onlayn test sinovlarini o'tkazish bo'yicha elektron dasturdan samarali foydalanishni tashkil etish.</p>	<p>2022 yil fevral</p> <p>2022 yil mart-may</p> <p>2022 yil mart-noyabr</p>			
14.	O'rta maxsus o'qituvchilarning salmog'ini 3,9 foizdan 1,3 foizga kamaytirish.	2022 yilda 6 nafar o'rta maxsus ma'lumotli o'qituvchilarni pedagogik yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalariga o'qishga jalb etish yuzasidan targ'ibot ishlarini olib borish.	2022 yil iyun-avgust	-	-	G'ozg'on shahar xalq ta'limi bo'limi

### III. Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish yo'nalishi

T/R	Chora-tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Talab etiladigan mablag' (so'm)	Moliyalashtirish manbasi	Mas'ul ijrochilar
15.	Umumiy o'rta ta'lismaktablarida o'quvchilarning ichki tartib va odob-axloq qoidalariiga rioya etish bo'yicha ota-onalar mas'uliyatini oshirish.	<p>1. Ichki tartib va odob-axloq qoidalari bo'yicha har bir ota-onani tanishtirish.</p> <p>2. Maktabning ichki tartib va odob-axloq qoidalari nizomini o'quvchilar orqali ota-onalarga yetkazish.</p> <p>3. Ichki tartib va odob axloq qoidalariiga rioya etmagan xodim va o'quvchilarga nisbatan nizomda belgilangan tartibda keskin chora ko'rib borishni ta'minlash.</p>	2022 yil fevral 2022 yil mart-aprel Doimiy	-	-	G'ozg'on shahar xalq ta'limi bo'limii, umumiy o'rta ta'lismaktablari
16.	Estrada xonandalari bilan konsert dasturlari tashkil etish.	Shahar hokimlari tomonidan yoshlar va maktab o'quvchilari uchun Navro'z va Mustaqillik bayramlari arafasida estrada honandalari bilan uchrashuv va konsert dasturlarini tashkil etish.	2022 yil Mart-avgust	-	Mahalliy byudjet mablag'lari	Shahar hokimi o'rinosi M.Mansurov, Madaniyat bo'limi
17.	O'quvchi yoshlar o'rtasida "Hokim kubogi" "Zakovat" intellektual o'yinini o'tkazish.	<p>1. "Zakovat" intellektual o'yinini maktab, shahar bosqichini o'tkazish.</p> <p>2. "Zakovat" intellektual o'yinida g'olib bo'lgan o'quvchilarni munosib rag'batlantirish.</p>	2022 yil Mart 2022 yil aprel	-	Mahalliy byudjet mablag'lari hisobidan	G'ozg'on shahar xalq ta'limi bo'limi, shahar ma'naviyat va ma'rifat bo'linmasi va umumta'lismaktablar
18.	O'quvchilarda Vatanga muhabbat xissini shakllantirish	1. Reja asosida belgilangan joylarda maktabning chaqiriqqacha xarbiy tayyorgarlik fani	Reja asosida	-	-	G'ozg'on shahar xalq ta'limi bo'limi,

T/R	Chora-tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Talab etiladigan mablag' (so'm)	Moliyalashtirish manbasi	Mas'ul ijrochilar
	maqsadida “Vatanparvarlik” darslarini tashkil etish.	o’qituvchlari ishtirokida, milliy gvardiya, mudofaa, ichki ishlar bo’limlari bilan xamkorlikda darslarni tashkil etish.				ichki ishlar bo’limi
19.	O’quvchilar o’rtasida “Yurtim tarixini o’rganaman” tadbirini o’tkazish.	<p>1. Umumta’lim maktablarining 7-9 sinf o’quchilari o’rtasida inosholar tanlovinini o’tkazish.</p> <p>2. Inoshonalar tanlovida g’oilarni hamda tadbirda faol ishgtirokchilarni taqdirlash.</p>	<p>2022 yil noyabr</p> <p>2022 yil dekabr</p>		Mahalliy byudjet mablag’lari hisobidan	G’ozg’on shahar xalq ta’limi bo’limi, ichki ishlar bo’limi
20.	Ta’lim muassasalarida “Uch avlod” uchrashuvlarini tashkil etish.	<p>1. Ta’lim muassasalarida “Uch avlod” uchrashuvlari grafigini tasdiqlash.</p> <p>2. Grafik asosida xar bir muktabda mahallalarda obro’-etiborga ega, vatan oldida sharfli mehnat qilgan nuroniylar bilan uchrashuvlarni tashkil etish</p>	<p>2022 yil mart</p> <p>2022 yil yil davomida</p>			G’ozg’on shahar xalq ta’limi bo’limi, Ma’naviyat va ma’rifat markazi shahar bo’linmasi, Mahalla va oilani qo’llab-quvvatlash bo’limi “Nuroniy” jamg’armasi shahar bo’limi
21.	O’quvchi-yoshlar tomonidan sodir etilishi mumkin bo’lgan huquqbazarliklar va jinoyatchilikni oldini olish	1. Har bir muktabda haftaning payshanba-profilaktika kunida IIB xodimlari bilan birgalikda “Davomat-tig” va jinoyatchilikni	2022 yil fevral	-	-	G’ozg’on shahar Ichki ishlar bo’limi,

T/R	Chora-tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Talab etiladigan mablag' (so'm)	Moliyalashtirish manbasi	Mas'ul ijrochilar
	bo'yicha ishlarni manzilli tashkil etish.	oldini olish bo'yicha turli tadbirlarni o'tkazish.				G'ozg'on shahar xalq ta'limi bo'limi
22.	O'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash maqsadida "Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur izdoshlari", "Men vatan himoyachisiman" kabi insholar va ko'rik-tanlovlarni tashkil etish.	1.Tanlovlarni 2 bosqichda; maktab, shahar miqyosida tashkil etish.  3. Har bir bosqich bo'yicha g'olib deb topilgan yoshlarni rag'batlantirish choralarini ko'rish.	2022 yil fevral-aprel	-	Mahalliy byudjet mablag'lari	G'ozg'on shahar xalq ta'limi, moliya bo'limi
23.	Umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchi-yoshlari bilan taniqli sportchilar, yozuvchi va shoirlar, madaniyat xodimlari ishtirokidagi ijodiy uchrashuvlarni tashkil etish.	1.Ijodiy uchrashuvlarga hamkor tashkilotlar tomonidan taniqli sportchi, shoir va yozuvchilar ishtirokini ta'minlash.  2.Maktab o'quvchilarini ijodiy uchrashuvlarga jalb etish va ucharashuv tashkil etilishi uchun shart-sharoit yaratish.	2022 yil fevral rejaga asosan	-	-	Turizm va sport bo'limi, Madaniyat bo'limi, shahar xalq ta'limi bo'limi
24.	"Jaholatga qarshi ma'rifat" shiori ostida shahar prokuraturasi, mudofaa, milliy gvardiya bo'limlari bilan hamkorlikda tarbiyasi og'ir va ichki nazoratda turuvchi	1. "Jaholatga qarshi ma'rifat" mavzusida insholar va rasmlar tanlovinini o'tkazish.  3. O'quvchilar o'rtasida sport va harbiy musobaqalarni tashkil etish.	2022 yil may	Hisob kitoblarga ko'ra	Homiylar, byudjetdan tashqari mablag'lar	Shahar ichki ishlar bo'limi, Ma'naviyat va ma'rifat markazi G'ozg'on shaharbo'limi,

<b>T/R</b>	<b>Chora-tadbir nomi</b>	<b>Amalga oshirish mexanizmi</b>	<b>Ijro muddati</b>	<b>Talab etiladigan mablag'</b> <b>(so'm)</b>	<b>Moliyalashtiri sh manbasi</b>	<b>Mas'ul ijrochilar</b>
	o'quvchilar ishtirokida harbiy-vatanparvarlik ruhidagi tadbirlarni o'tkazish.	4. Tanlov va musobaqa g'oliblarni rag'batlantirish.				shahar xalq ta'limi bo'limi
<b>25.</b>	O'quvchi-yoshlarda telefondan xususan internetdan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish.	<p>1. Sinf raxbarlari tomonidan ota-onalarga maktab hududida telefondan qanday foydalanish mumkinligi to'g'risida ma'lumotlar berish.</p> <p>2. 1-4 sinf o'quvchilari uchun "Internet nima", 5-11 sinf o'quvchilari uchun "Internet, ijtimoiy tarmoqlar va ularning yoshlarga salbiy ta'siri" mavzularida davra suxbatlari, ochiq tarbiyaviy soatlarni tashkil etish.</p> <p>3. Informatika darslarida internetdagi turli tahdidlar, ijtimoiy tarmoqlardagi turli ko'ngilochar saytlar, shuningdek, internetdan foydalanish madaniyati haqida tushuntirish ishlarini olib borish.</p>	Yil davomida	-	-	G'ozg'on shahar xalq ta'limi bo'limi
<b>26.</b>	"Qizlarjon" o'quvchi-qizlar forumining shahar bosqichini o'tkazish.	<p>1. Shaharda "Qizlarjon" o'quvchi-qizlar forumini o'tkazish bo'yicha chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish va tasdiqlash.</p> <p>2. Dastur asosida Forumni yuqori saviyada tashkil etish.</p>	2022 yil Sentyabr-oktyabr		Homiylar, byudjetdan tashqari mablag'lar	G'ozg'on shahar xalq ta'limi, Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash bo'limlari

<b>T/R</b>	<b>Chora-tadbir nomi</b>	<b>Amalga oshirish mexanizmi</b>	<b>Ijro muddati</b>	<b>Talab etiladigan mablag'</b> <b>(so'm)</b>	<b>Moliyalashtirish manbasi</b>	<b>Mas'ul ijrochilar</b>
		3. Forum doirasidagi loyhalarning g'olib o'quvchilarini viloyat bosqichida ishtirokini ta'minlash. 4. G'olib va faol ishtirokchilarni munosib taqdirlash.				
27.	Umumta'lim maktablarining Yuqori sinf o'quvchilari uchun vatanparvarlik soatlarini muntazam o'tkazilishini ta'minlash	1. Vatanparvarlik soatlarini o'tkazish reja-jadvalini tasdiqlash. 1. IIB, prokuroatura, mudofaa ishlari bo'limi, harbiylarni jalb qilgan holda umumta'lim maktablarida vatanparvarlik soatlarini o'tishni joriy qilish..	2022 yil mart - dekabr			G'ozg'on shahar IIB, prokuratura, mudofaa ishlari bo'limi, xalq ta'limi bo'limi, yoshlar ishlari agentligi shahar bo'limi
28.	Umumta'lim maktablari o'quvchilari o'rtasida "Yosh chegarachi" musobaqalarini tashkil etish	1. Hamkor tashkilotlar bilan qo'shma buyruq tayyorlash. 2. Musobaqalarni o'tkazish bo'yicha amaliy-uslubiy seminar tashkil qilish. 3. Barcha maktablarda tayyorgarlik ishlariin tashkil qilish. 4. Shahar bosqichlarini o'tkazish.	2022 yil Mart Aprel  Aprel May			Yoshlar agentligi shahar bo'limi
29.	Umumta'lim maktablari o'quvchilari o'rtasida "Yosh qutqaruvchi" musobaqalarini tashkil etish.	1. Hamkor tashkilotlar bilan qo'shma buyruq tayyorlash. 2. Musobaqalarni o'tkazish bo'yicha amaliy-uslubiy seminar tashkil qilish. 3. Barcha maktablarda tayyorgarlik isho'lariin tashkil qilish.	2022 yil Mart Aprel  Aprel			Yoshlar agentligi shahar bo'limi, shahar FVB bilan hamkorlikda

T/R	Chora-tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Talab etiladigan mablag' (so'm)	Moliyalashtirish manbasi	Mas'ul ijrochilar
		4. Shahar bosqichlarini o'tkazish.	May			
<b>IV. “5 ta muhim tashabbus”ni joriy etish yo’nalishi</b>						
30.	O’quvchilarni vatanparvarlik, vatanga sadoqat ruvida tarbiyalash va harbiy sohalarga qiziqtirish.	9-11-sinf o’quvchilarini kasbiy moyilligini aniqlash hamda harbiy sohalarga qiziqtirish maqsadida harbiy qismlarga tanishuv ekskursiyalarini tashkil etish.	Doimiy	-	-	G’ozg’on shahar xalq ta’limi bo’limi
31.	Ta’lim muassasalarida sport to’garaklari faoliyatini yanada takomillashtirish	<p>1. Mayjud bolalar va o’smirlar sport maktablarini ular joylashgan hududdagi maktablarga biriktirish grafigini ishlab chiqish.</p> <p>2. Bolalar va o’smirlar sport maktablari hamda biriktirilgan maktablar o’rtasida hamkorlik yuzasidan yo’l xaritasini ishlab chiqish.</p> <p>3. Yo’l xaritasi asosida faoliyatni yo’lga qo’yish, yoshlarni ko’proq sportga jalb qilish choralarini ko’rish.</p>	Fevral   Mart  doimiy	-	-	G’ozg’on shahar xalq ta’limi bo’limi, Turizm va sport bo’limi
32.	Maktablarda raqs, teatr, rassomchilik yo’nalishlarida to’garaklar va badiiy havaskorlik jamoalarini tashkil etish	<p>1.Tegishli fan o’qituvchilari, joylardagi madaniyat bo’limlari, shahar ma’naviyat va ma’rifat markazi tomonidan maktablarda ushbu yo’nalishdagi to’garaklar faoliyati yo’lga qo’yiladi.</p> <p>2.Barkamol avlod bolalar maktabi to’garak rahbarlari tomonidan raqs,</p>	Fevral-mart	-	-	G’ozg’on shahar xalq ta’limi bo’limi, Ma’naviyat va ma’rifat markazi shahar bo’linmasi

<b>T/R</b>	<b>Chora-tadbir nomi</b>	<b>Amalga oshirish mexanizmi</b>	<b>Ijro muddati</b>	<b>Talab etiladigan mablag'</b> (so'm)	<b>Moliyalashtirish manbasi</b>	<b>Mas'ul ijrochilar</b>
		teatr, rassomchilik yo'nalishlarida tarmoq to'garaklari tashkil etiladi				
33.	Mahallalarda madaniy, sport va kitobxonlik tadbirlarini tashkil etish	Mahalladagi yoshlar yetakchilari tomonidan maktablarda darsdan tashqari paytda, musobaqa, konsert, kitobxonlik, mushoirasi, "Zakovat" va boshqa intellektual o'yinlarni mahalladagi yoshlar uchun tashkil etish.	Yil davomida		Mahalliy byudjet mablag'lari	Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash bo'limi, madaniyat bo'limi, manaviyat va marifat markazi shahar bo'linmasi, Yoshlar ishlar agentligi shahar bo'limi
34.	Milliy kurash musobaqasini tashkil qilish.	<p>1. Milliy kurash yo'nalishi bo'yicha "Shahar hokimi kubogi" musobaqasini o'tkazish yuzasidan nizomni tasdiqlash.</p> <p>2. Musobaqaning kesimida saralash muktablar bosqichini o'tkazish.</p> <p>3. Musobaqaning bosqichini o'tkazish.</p> <p>4. Musobaqa g'oliblarini taqdirlash marosimini tashkil etish.</p>	2022 yil Sentyabr-oktyabr	Xisob-kitoblar asosida	Mahalliy byudjet mablag'lari	G'ozg'on shahar hokimligi, shahar turizm va sport bo'limi, xalq ta'limi bo'limi, shahar moliya bo'limi

T/R	Chora-tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Talab etiladigan mablag' (so'm)	Moliyalashtirish manbasi	Mas'ul ijrochilar
35.	Umumta'lim maktablarida ommaviy sportni targ'ib qilish va sportga qiziqqan o'quvchi-sportchilarni tayyorlash va seleksiya ishlarini olib borish.	<p>1. Maktablar o'rtasida turli sport musobaqalari o'tkazish orqali seleksiya ishlarini amalga oshirish.</p> <p>2. Har bir maktabda 5 nafar yetuk malakali jismoni tarbiya fani o'qituvchilarini tanlab olish va seleksionerlar tayyorlash bo'yicha qisqa muddatli o'quv kurslar tashkil etish;</p>	Yil davomida	-	-	G'ozg'on shahar turizm va sport bo'limi, xalq ta'limi bo'limi,
36.	Xalq ta'limi tizimida faoliyat ko'rsatayotgan hodimlar o'rtasida "Mini-futbol" va "Voleybol" bo'yicha " <b>Viloyat hokimi kubogi</b> " musobaqasiga ishtirok etish	1. Musobaqaning shahar saralash bosqichini o'tkazish.	2022 yil sentyabr		Mahalliy byudjet mablag'lari	G'ozg'on shahar turizm va sport bo'limi, xalq ta'limi bo'limi
37.	O'quvchi-yoshlar o'rtasida " <b>Shaxmat</b> ", " <b>Shashka</b> ", " <b>Stol tennisi</b> " bo'yicha viloyat kubogi musobaqalariga ishtirok etish.	<p>1. "Shaxmat" musobaqasini 2 bosqichda: maktab, shahar bosqichlarini tashkil etish.</p> <p>2. Musobaqaning maktab, shahar saralash bosqichini o'tkazish.</p> <p>3. Musobaqaning shahar g'oliblarini taqdirlash tadbirini tashkil etish.</p>	<p>2022 yil noyabr</p> <p>2022 yil dekabr</p>		Mahalliy byudjet mablag'lari	G'ozg'on shahar turizm va sport bo'limi, xalq ta'limi bo'limi
38.	Sog'lom turmush tarzini targ'ib etish maqsadida xalq ta'limi xodimlari o'rtasida " <b>5 000</b>	1. Konimex shaharida yugurish marafonini tashkil etish bo'yicha	2022 yil	-	-	G'ozg'on shahar turizm va sport bo'limi,

T/R	Chora-tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Talab etiladigan mablag' (so'm)	Moliyalashtirish manbasi	Mas'ul ijrochilar
	“qadam” shiori ostida yugurish marafonini tashkil etish.	<p>shahar hokimligi yig'ilish bayonini tasdiqlash.</p> <p>2. Marafonda ishtirok etish istagini bildirgan xodimlar ro'yxatini shakllantirish.</p> <p>3. Marafonni belgilangan joyda hamkor tashkilotlar bilan birgalikda yuqori saviyada tashkil etish.</p>	davomida reja grafik asosida			xalq ta'limi bo'limi
<b>V. Bitiruvchilarni kasbga yo'naltirish yo'nalishi</b>						
39.	Umumta'lim maktablari o'quvchilarini qiziqishlari asosida kasb-hunarga o'qitish ishlarini tashkil etish.	<p>1. Boshlang'ich sinfdan boshlab o'quvchilarga mehnat bozorida mavjud bo'lган turli kasblar to'g'risida tushunchalar berish;</p> <p>2. Psixologik tashxislash asosida umumta'lim maktablarining 7-9-sinf o'quvchilarini kasbiy moyilligini aniqlash hamda ishlab chiqarish sanoat korxonalariga tanishuv ekskursiyalarini tashkil etish;</p> <p>3. Hududning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatidan kelib chiqqan holda 10-sinf o'quvchilarini matabda belgilab berilgan kasblarga o'rgatish hamda “Ustoz-shogird” an'analari asosida kasbga yo'naltirish;</p> <p>4. Olis va chekka hududlardagi umumta'lim maktablarida</p>	2022 yil Mart-aprel	-	-	G'ozg'on shahar xalq ta'limi bo'limi

T/R	Chora-tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Talab etiladigan mablag' (so'm)	Moliyalashtirish manbasi	Mas'ul ijrochilar
		<p>konteynerlardan tayyorlangan maxsus jihozlangan kasb-hunar amaliyoti xonalarini tashkil etish;</p> <p>5. Kasb-hunar amaliyoti xonalarini turizm, bog'dorchilik, tadbirkorlik, milliy hunarmandchilik sohalariga oid kerakli jihozlar bilan jihozlash;</p>				
40.	9-sinf bitiruvchilarini kasb-hunar maktablari va akademik liseylarga, kasb-hunarga yo'naltirish	<p>1. Umumta'lim muassasalaridagi 9-sinf bitiruvchilarining qiziqishlari asosida tegishli kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha tavsiyalar berish.</p> <p>2. Umumta'lim maktablarining 9-sinf o'quvchilari va ularning ota-onalariga Kasb-hunar maktablarida o'rgatiladigan kasblar hamda akademik liseylar yo'nalishlari to'g'risida ma'lumot berish.</p> <p>3. Umumta'lim maktablarining 9-sinf bitiruvchilarini qiziqishi va qobiliyati bo'yicha Kasb-hunar maktablari yoki akademik liseylarga yo'naltirish ishlarini tashkil etish.</p>	<p>2022 yil Mart</p> <p>2022 yil aprel</p> <p>2022 yil may</p>	-	-	G'ozg'on shahar xalq ta'limi bo'limi
<b>VI. Iqtidorli o'quvchilar va malakali trenerlarni qo'llab quvvatlash</b>						

T/R	Chora-tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Talab etiladigan mablag' (so'm)	Moliyalashtirish manbasi	Mas'ul ijrochilar
41.	Iqtidorli o'quvchilar o'rtasida o'tkaziladigan fan olimpiadasining viloyat, respublika bosqichida ishtirok etadigan o'quvchilarga qulayliklar, yetarlicha shart-sharoitlar yaratish.	<p>1. Iqtidorli o'quvchilar o'rtasida o'tkaziladigan fan olimpiadalarining viloyat bosqichida ishtirok etadigan iqtidorli o'quvchilarni olib kelish va ketish uchun bepul avtobuslar shahar hokimliklar tomonidan ajratilishini yo'lga qo'yish.</p> <p>2. G'olib bo'lgan o'quvchilarni esdalik sovg'alari bilan taqdirlash.</p>	2022 yil fevral-noyabr	Loyiha doirasida	Mahalliy byudjet hisobidan	Shahar hokimi o'rinosari M.Mansurov, shahar moliya bo'limi, xalq ta'limi bo'limi
42.	Fan olimpiadalari va sport musobaqalarida g'olib bo'lgan iqtidorli o'quvchilar bilan shahar hokimi uchrashuvlarini tashkil etish	<p>1. Fan olimpiadalari va sport musobaqalarida sovrindor bo'lgan iqtidorli o'quvchilar ro'yxatini shakllantirish;</p> <p>2. Iqtidorli o'quvchilarni rag'batlantirish maqsadida shahar hokimi bilan uchrashuv tashkil etish;</p> <p>3. Shahar hokimi tomonidan iqtidorli o'quvchilarga esdalik sovg'alari berish.</p>	<p>2022 yil Mart</p> <p>2022 yil aprel</p> <p>2022 yil may-iyun</p>	Tegishli hisob-kitoblarga ko'ra	Mahalliy byudjet hisobidan	Shahar xalq ta'limi bo'limi
<b>VII. Oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlik</b>						
43.	Maktab o'qituvchilarining kasbiy malakasi va pedagogik mahoratini oshirish bo'yicha o'quv-uslubiy qo'llanmalar tayyorlash va nashr etish.	1. Maktabda o'qitiladigan fanlar bo'yicha maktab o'qituvchilarining kasbiy malakasi va pedagogik mahoratini oshirishga qaratilgan o'quv-uslubiy qo'llanmalarga ehtiyojni aniqlash.	2022 yil mart			G'ozg'on shahar xalq ta'limi bo'limi

T/R	Chora-tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Talab etiladigan mablag' (so'm)	Moliyalashtirish manbasi	Mas'ul ijrochilar
